



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024-YIL YANVAR OYI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz

Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 135,6 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 113,4% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining uch yillik ko‘rsatkichlari o‘shish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 531,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **1 912,0** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **89,5 %** ni, tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI, %da



Ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **5,8 mlrd.** soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



yanvar

2022-y	5,4 mlrd. soʻm
2023-y	7,7 mlrd. soʻm
2024-y	5,8 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y	51,6%
2023-y	111,6%
2024-y	62,1%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **1 912,0 mlrd.** soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **89,5 %** ini tashkil etdi.

yanvar

2022-y.	1 708,2 mlrd. soʻm
2023-y.	1 547,8 mlrd. soʻm
2024-y	1 912,0 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y.	110,2%
2023-y.	87,6%
2024-y	110,6%





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Makaron mahsulotlari	
2024	100,6	2024	97,0	2024	2,5 m.
2023	148,7	2023	2,7 m.	2023	55,8
2022	112,4	2022	122,8	2022	86,0
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	76,7	2024	153,3	2024	72,7
2023	47,2	2023	17,7	2023	85,2
2022	46,7	2022	108,3	2022	81,5
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	100,0	2024	48,6	2024	2,2 m.
2023	21,0	2023	170,4	2023	180,2
2022	33,3	2022	41,7	2022	11,8
Yoqilg'i moyi		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	4,9 m.	2024	152,3	2024	153,7
2023	58,8	2023	65,4	2023	89,6
2022	115,3	2022	184,2	2022	120,6

2024-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 32,3 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 3,0% ga kamaygan), 33,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (0,6 % ga ko'paygan), 7,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari (30,7% ga ko'paygan) hamda 1657,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (24,0% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.






Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	33,3	32,3	-1,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	30,5	22,2	-8,3
Paxta chigiti, ming t.	10,9	16,7	5,8
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.	9,8	7,6	-2,2

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,1 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 187,4%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 46,7% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 126,0 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,6% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 67,5%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,1 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,6 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar oyida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 10,5 % (10,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 20,6% (18,8%) va quyi texnologiyalisi – 57,9% (62,0%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 10,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 115,0 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 7,4 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 52,8 % ga kamaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,2 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 213,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 47,2 %ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 32,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 241,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 32,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 5,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar oyida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 139,2 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 25,6 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 725,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 57,0 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,7 %, fizik hajm indeksi 125,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 127,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 150,2 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 % ni, fizik hajm indeksi 80,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 140,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni fizik hajm indeksi esa 113,8 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 94,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 101,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,2%ni fizik hajm indeksi esa 127,3 %ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 137,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 52,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 118,8 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 130,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 89,0 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 92,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 62,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni fizik hajm indeksi esa 174,3 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %, fizik hajm indeksi 4,7 martaga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 47,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 42,6 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 193,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,1 % ini) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 73,4 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	33,1	32,0	-1,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	141,1	148,8	7,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7,1	17,1	10,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,3	2,3	1,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,0 mlrd. so'm yoki 2,4 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,3 mlrd. so'm va 69,6 %ga ko'paygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 596,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 27,9 %ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da




Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoatning to'rtta texnologik tarkibi mavjud bo'lib, ular birgalashib sanoat ishlab chiqarishining asosiy quvvati hisoblanadi.

2024-yil yanvar oyida texnologik tarkib bo'yicha quyidagi ishlab chiqarish hajmlari amalga oshirilgan.

2024-yil yanvar



2023-yil yanvar




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar oyida


jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 916,6 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,9 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

*Jami sanoat mahsulotlari
hajmidagi ulushi (foiz)da*



*Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd.so‘m)*




2024-yil 1-fevral holatiga

Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12 732** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan **7 635** tasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2024-yil yanvar oyida **85** ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

